

**TALABALARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI
RIVOJLANTIRISHDA PRAGMATIKANING AHAMIYATI**

Maxmudova Nigoraxon Boyqo'zi qizi

Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur tezsida talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda pragmatikaning ahamiyati hususida ayrim fikr-mulohazalar bayon etilgan. Pragmatika so'zlovchining turli ijtimoiy vaziyatlarda tilni tushunish va undan o'rinli foydalanish qobiliyatini anglatadi. Pragmatika nutqiy harakatlarni (masalan, iltimos qilish, uzr so'rash yoki maqtash) qanday bajarishni bilish va ijtimoiy munosabatlar, madaniy me'yorlar hamda vaziyatga oid omillardan kelib chiqadigan ma'no nozikliklarini tushunishni o'z ichiga oladi.

Kalit soz'lar. Til o'qitish va o'rganish, kommunikativ kompetensiya, ijtimoiy va madaniy vaziyatlar, kommunikativ qobiliyat, grammatika, lug'at va sintaksis.

Аннотация. В данной работе представлены некоторые размышления о важности прагматики в развитии коммуникативной компетенции студентов. Прагматика относится к способности говорящего понимать и использовать язык надлежащим образом в различных социальных ситуациях. Прагматика включает в себя знание того, как совершать речевые акты (например, просьба, извинение или похвала) и понимание тонкостей значения, возникающих из социальных отношений, культурных норм и ситуационных факторов.



Ключевые слова: преподавание и изучение языка, коммуникативная компетенция, социальные и культурные ситуации, коммуникативные способности, грамматика, лексика и синтаксис.

Abstract. This thesis presents some reflections on the importance of pragmatics in developing students' communicative competence. Pragmatics refers to the speaker's ability to understand and use language appropriately in a variety of social situations. Pragmatics involves knowing how to perform speech acts (e.g., requesting, apologizing, or praising) and understanding the subtleties of meaning that arise from social relationships, cultural norms, and situational factors.

Keywords. Language teaching and learning, communicative competence, social and cultural situations, communicative ability, grammar, vocabulary, and syntax.

Bilamizki, til o'qitish va o'rganish sohasida kommunikativ kompetensiya tushunchasi markaziy o'rinda turadi. Bugungi kunda chet tilida kommunikativ kompetensiyaga ega bo'lish nafaqat tildagi grammatik aniqlikni, balki, turli ijtimoiy va madaniy vaziyatlarda tildan samarali va o'rinli foydalanishni bilishni ham talab etadi. O'qitish jarayonida o'qituvchilar talabalarni chet tilida kommunikativ qobiliyatini takomillashtirishda faqatgina o'rgatilayotgan tilning lingvistik ko'nikmalaridan (masalan, grammatika, lug'at va sintaksisga) emas, balki real hayotdagi muloqot vaziyatlarda qiyinchiliklardan samarali yo'l topgan holda chiqib ketishlari kerak bo'ladi. Bugungi kundagi zamonaviy til o'qitish mazmunli, kontekstga mos va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan muloqotni amalga oshirishga asoslangan bo'lib, talabalar aynan kommunikativ kompetensiya orqali shaxs boshqa tilda samarali, madaniy mos va kontekstual muloqotni olib borish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda pragmatika alohida ahamiyat kasb etadi. U kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, u til birliklarining qo'llanilishi, ularning kontekstda qanday ma'nolarni ifodalashi, shuningdek, ijtimoiy va madaniy holatlarda qanday talqin qilinishini o'rganuvchi sohadir. Uning tahlil usullari orqali talabalar nutqining kontekstual aniqligi va mosligi kuchaytiriladi.

Ma'lumki, kommunikativ kompetensiya tug'ma qobiliyat emas, balki inson tomonidan ijtimoiy-kommunikativ tajribani egallash jarayonida shakllanuvchi qobiliyat sanaladi. Boshlang'ich ta'limda nutq madaniyatini o'rgatish bo'yicha o'zining ilmiy ishlari bilan tanilgan taniqli rus professori O.M.Kazartseva pedagogik oliy o'quv yurt talabalari uchun mo'ljallangan «Nutq madaniyati: o'qitish nazariyasi va amaliyoti» («Культура речевого общения: теория и практика обучения») deb nomlangan kitobida keltirilishicha, kommunikativ kompetensiya kommunikativ-ijtimoiy tajriba munosabatlarni o'zgartirish mexanizmini o'z ichiga olgan holda nutqni stilistik jihatdan turli variantlarda qo'llash orqali namoyon bo'ladi.[1.B.183] Albatta, bu qobiliyat o'zaro kommunikatsiya jarayonida shakllanadi, chunki insonni nafaqat shaxs, balki, faoliyatning sub'ekti sifatida to'laqonli shakllanishi uchun kommunikatsiya muhim omil sanaladi. Bu borada, taniqli rus psixologiya va psixoterapiya sohasida faoliyat yuritgan olim L.P.Grimak shunday deydi: “insonning inson bo'lishining yana bir sababi shundaki, u o'ziga o'xshaganlar bilan faol muloqotda bo'lgan..., tug'ilishining ilk kunlaridan boshlab insonlar bilan doimiy muloqotda bo'lish...”. [2.B.3]

Pragmatik kompetensiya kommunikatsiya jarayonida kommunikantlar (so'zlovchi) va kommunikatlar (tinglovchi) tomonidan samarali muloqot shakllanishiga yordam beradi. Negaki inson u orqali hayotining har kuni, har soat va daqiqasida kirishiladigan muloqotning muhiti kommunikatsiya maqsadiga ko'ra eng samarali muqobil variantni topa bilish va til



vositalaridan unumli foydalana olish kabi ko'nikmalar egallaniladi. Pragmatika so'zlovchining turli ijtimoiy vaziyatlarda tilni tushunish va undan o'rinli foydalanish qobiliyatini anglatadi. Pragmatika nutqiy harakatlarni (masalan, iltimos qilish, uzr so'rash yoki maqtash) qanday bajarishni bilish va ijtimoiy munosabatlar, madaniy me'yorlar hamda vaziyatga oid omillardan kelib chiqadigan ma'no nozikliklarini tushunishni o'z ichiga oladi. Boshqacha aytganda, bu xushmuomalalik, rasmiylik va ijtimoiy rollar kabi omillarni hisobga olgan holda tildan vaziyatga mos tarzda foydalanish qobiliyati ekanligini bildiradi.

XX asrning ikkinchi yarmida chet tilini o'qitish sohasida kommunikativ yondashuvning paydo bo'lishi pragmatik kompetensiyani ham o'zlashtirish zaruratini yuzaga keltirdi. "Pragmatika" atamasi grekcha "*pragma*", "*pragmatos*" so'zlaridan olingan bo'lib, "*ish*", "*harakat*" degan ma'nolarni anglatadi. Pragmatika atamasi dastlab, tilshunoslik sohasida XX asrning 30-yillarida amerikalik tilshunos Charles Morris tomonidan fanga olib kirilgan bo'lib, pragmatika semiotikaning tarkibiy qismi sifatida e'tirof etilgan. Ch.Morris ta'limotida pragmatik kompetensiya belgilar va insonlar o'rtasidagi munosabatni o'rganadi deb ta'riflangan.

Pragmatika atamasi lingvistik adabiyotlarda keng ma'noda talqin qilinadi, uning chegarasi yo'q. Masalan, ko'plab tadqiqot ishlarida pragmatika kommunikativ vazifalarni hal qilish maqsadida lisoniy vositalardan tanlab foydalanishni nazarda tutuvchi real muloqot vaziyati sifatida ko'riladi.

P.Grundyning 2008 – yildagi "Doing Pragmatics" deb nomlangan kitobida "pragmatika - kundalik hayotda tilni qanday ishlatish va tushunish bilan shug'ullanuvchi soha" deb ta'riflangan. M.Arielning ishlarida esa "pragmatika - grammatik birliklar va til tashqarisidagi kontekstlar o'rtasidagi munosabatlarni tadqiq etish" deb keltirilgan. D.Archer., K.Aijmer va A.Wichmannlar pragmatikani "kontekstda ma'noni ifodalash uchun tildan

foydalanishni o'rganish" deb, B.Nerlich esa pragmatikani "ijtimoiy vaziyatlarda til qo'llanishini o'rganish" deb izohlaydi. Shuningdek, S.C.Levinsonning fikricha, pragmatik tilning muloqotda qanday ishlatilishi haqidagi bilimlardan iborat bo'lib, unda nima aytilganiga emas, balki qanday aytilganiga e'tibor qaratiladi va muloqot jarayonida kamida ikki tomon - so'zlovchi va tinglovchi ishtirok etadi. S.C.Levinsonning so'zlariga ko'ra, "til o'rganuvchilar suhbatdoshlar bilan salomlashish, ma'lumot so'rash, afsuslanish, minnatdorchilik bildirish, rozilik yoki norozilik bildirishning madaniy jihatdan mos usullarini bilishlari kerak bo'ladi. Bundan tashqari, ular o'z til jamoasida qo'llaniladigan xatti-harakatlar va ohang namunalari aniqlay olishlari ham kerak bo'ladi. Bu namunalar boshqa til jamoasida yoki boshqa madaniy asoslarga ega bo'lgan odamlar tomonidan butunlay boshqacha talqin qilinishi mumkin." Demak, pragmatika borasida yuqorida keltirilgan ta'riflardan kelib chiqib shuni tushunish mumkinki, pragmatika bu - doimo kommunikantlar o'rtasidagi o'zaro ta'sirni tushunish bo'lib, muloqotda u tilning qanday ishlatilishi haqidagi bilimlarni o'rgatadi.

O'zbek tilshunosligida pragmatika XXI asr boshlariga kelib o'rganila boshlandi. Xususan, Sh.Safarovning "Pragmalingvistika" (2008), M.Hakimovning "O'zbek tilida matnning pragmatik tadqiqi" (2001), "O'zbek pragmalingvistikasi asoslari" (2013), M.Qurbonovanning "O'zbek bolalar nutqining pragmatik aspekti" kabi asarlar taqsimiga sazovor ishlardan sanaladi. Ayniqsa, M.Hakimovning "O'zbek tilida matnning pragmatik talqini" (2001)mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida o'zbek tilshunosligida lingvistik pragmatikaga oid nazariy masalalarning tadqiq etilishi pragmatik kompetensiyaga yanada chuqurroq kirib borishga keng yo'l ochib berdi.

Nutqiy muloqotda pragmatik munosabatlar muhim hisoblanadi. Ular so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi maqsad, niyat, kontekst va ijtimoiy rolni to'g'ri tushunishga yordam qiladi. Kommunikatsiya jarayonida pragmatik

munosabatlarning uch turi eng ommabop munosabatlar bo'lib, ular quyidagilarni tashkil etadi. Birinchisi, axborot manbai (axborot uzatuvchi, gapiruvchi yoki yozuvchi) orqali ifodalanayotgan pragmatik munosabatlar bo'lib, bunda axborot uzatuvchining maqsadi, uzatilayotgan axborotga shaxsiy munosabati va resteptorga nisbatan rejalashtirilgan ta'siri e'tiborga olinadi. Pragmatik munosabatlarning ikkinchi turi lisoniy birlik bo'lib, u ifodalinayotgan pragmatik ma'noni qamrab olgan matnda (fikir, jumla) ko'rinadi. Uchinchi tur bu - pragmatik munosabat tinglovchi yoki kitobxonning matn orqali anglagan axborotga pragmatik munosabat bildirishi nazarda tutiladi. Bu munosabat axborotni idrok qilish jarayonida, shuningdek, bu axborotga yoki uning uzatuvchisiga bildirilgan munosabatda o'z aksini topadi.

Taniqli amerikalik pragmalingvist X.Graysning so'zlariga ko'ra pragmatik maqsadni ko'zlagan kommunikativ faoliyat o'zaro hamkorlik asosida tashkil etiladi va bu hamkorlik quyidagi to'rtta tamoyilni inobatga olgan holda amalga oshiriladi: *miqdor, sifat, mavzuga oidlik, muomala tarzi*. Dastlab, *miqdor tamoyiliga* e'tibor qaratsak, pragmatik maqsadga ko'ra bu tamoyil olinayotgan yoki uzatilayotgan ma'lumot, axborotning miqdorini belgilash (ba'zan chegaralash)ni o'z ichiga oladi. Bunda so'zlovchi va tinglovchi uchun almashuvdagi axborot talab darajasida bo'lishi, shuningdek, ehtiyojdan ortiqcha ma'lumotni olish (berish)ga urinmaslik talab etiladi. Og'zaki yoki yozma muloqotda me'yorni bilmaslik yoki unutib qo'yish albatta, fikr almashinuv sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Mavhumlikka sabab bo'ladigan qisqalik esa tushunmovchilikka, ko'p so'zlilik esa fikr tarqoqligiga sabab bo'ladi.

Pragmatik kompetenstiyasida *sifat tamoyili* ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bunda ma'lumotlarning haqqoniyligiga e'tibor qaratilib, yolg'on axborotlardan qochish, to'g'riligi aniq bo'lmagan axborotlarni uzatishdan

vaqtida voz kecha bilish mazkur tamoyilning asosiy shartlariga kiradi. Shuningdek, bu tamoyil shaxsning jamiyat oldidagi mas'uliyatini ko'rsatuvchi mezon sifatida ham ko'riladi. Ongli shaxs o'ziga etgan axborotning haqqoniyligiga mas'ulligini his qiladi, yolg'on va gumonli axborotlar tarqalishini oldini oladi.

Navbatdagi tamoyil bu - *mavzuga oidlik tamoyili* bo'lib, bu tamoyil suhbatchilarni mavzu ob'ekti doirasidan chetga chiqmaslikka da'vat etadi. Mavzuga oidlik tamoyiliga rioya qilmaslik miqdor va sifat tamoyillardan chekinishga olib kelishi mumkin. Real hayotda telefonda so'zlashish, internet orqali yozishmalarda mazkur tamoyilga rioya qilish so'zlovchi o'zini va suhbatdoshini hurmat qilishini namoyish etadi. Suhbatdoshlar vaqtining qadrlanishi yuksak madaniyat belgisi sanaladi. Biroq, bir-biridan yiroqda bo'lgan oila a'zolar, yaqin do'stlar yoki sevishganlarning media muloqotini har doim ham miqdor, sifat va mavzu qoliplariga solishni birday talab qilolmaymiz.

Muloqot uslubi (muomila tarzi) tamoyili – bu suhbat yoki yozishuv davomida g'oya va fikrlarni aniq hamda tushunarli tarzda, suhbatdoshni hisobga olib ifodalashga bo'lgan intilish bu tamoyilning asosini tashkil etadi. Bunda so'zlovchi tinglovchi uchun notanish, tushunishi mushkul so'z va iboralarni iloji boricha ishlatmasligi, ishlatgan taqdirda ham o'z o'rnida uni izohlab ketishi; fikr ifodasida mavhumlik, chuchmallikka yo'l qo'ymasligi; bayonning lo'nda va qisqa bo'lishi; nutq qurilishida fikr izchilligi, mantiqiy aloqadorlik va ketma-ketlik relevantlikni ta'minlaydi.

Taniqli rus professori O.S.Issersning “Kommunikativ portretni yaratish muammolari: gender (jinsga oid) jihat” (Проблемы создания «коммуникативного портрета»: тендерный аспект) deb nomlangan maqolasida keltirilishicha, muloqot jarayonida so'zlovchi nutqi quyidagi parametrlarda o'z aksini topadi:

- u o‘z nutqida o‘z “men”ini, shaxsiy xususiyatlarini (bevosita yoki bilvosita, o‘z mavqeini ko‘tarish yoki pasaytirish darajasida) namoyon qiladi;
- so‘zlarni qo‘llashda odobliligini (xushmuomalalik borasida suhbatdoshini o‘ziga jalb qilishga qiziqish yoki qiziqmasligini) namoyon qiladi;
- fikr almashinuv jarayonida suhbatdoshlar o‘z nutqlarining kommunikativ pragmatik ta’sirining samaradorligini nazorat qiladilar (ohangni ongli tarzda tanlaydi, vaziyat va holatni boshqaradi).

Demak, pragmatik kompetensiya nutqni to‘g‘ri tuzish va kommunikativ vazifalarni bajarish bo‘yicha maxsus bilimlar majmuasini o‘z ichiga oladi. U nutq tuzilishini ijtimoiy-madaniy kontekst bilan bog‘lash qobiliyatini anglatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Казарцева О.М. Культура речевого общения: Теория и практика обучения. – Тошкент: Флинта-наука, 1999. – С. 183.
2. Гримак Л.П. Общение с собой: Начала психологии активности. – Москва: Политиздат, 1991. – С. 3.
3. Моррис Ч. У. Основания теории знаков // Семиотика: антология / сост. и общ. ред. Ю. С. Степанов. — М.: Радуга, 1983. — 42с.
4. Демьянков В. З. Прагматические основы интерпретации высказывания // Известия АН СССР. Серия литературы и языка. — 1981. — № 4. — С. 368–377; Дудина Т. Б. Прагматическая характеристика текста и его лингводидактическая направленность // Проблемы лингвистического анализа текста: коммуникативно-прагматический аспект. — Иркутск: ИГПИИЯ, 1990. — С. 5–10; Почепцов Г. Г. Прагматика текста // Коммуникативно-прагматические и семантические





функции речевых единств. — Калинин: Калининский гос. ун-т, 1980. — С. 5–10.

5. Grice H.P. Pre-supposition and conversation implicature. In: Radical Pragmatics – New York, 1981. P.183.

6. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2008. – 25 б.

